

TUYALAR SUT MAHSULDORLIGI VA SHIFOBAXSH XUSUSIYATLARI

Tleumuratov A. K., Sitirzaev S.T., Muxammadiyev J.J.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali

Binobarin tuyalarni xalq og'zida «Cho'l kemasi» deb bekorga aytishmaydi, sababi tuyalar issik iqlimga, uzoq muddat suvsizlikka chidamli hayvon, shu bois tuyachilik cho'l sharoiti chorvadorlarida eng ahamiyatli va foydali tarmoq bo'lib hisoblanadi. Cho'l xududlarini o'zlashtirishda, keskin kontinental' iqlimga chidamli bo'lgan mahalliy xalqni oziq - ovqat (go'sht, sut) mahsulotlari bilan ta'minlashda, sanoatni jun ashyosi bilan ta'minlashda chorvachilikdagi asosiy tarmoqlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Tuyachilikni rivojlantirish cho'l sharoitida – arzon go'sht, sut va qimmatbaho jun etishtirish manbai bo'lib hisoblanadi. Chunki tuya cho'l va yarim cho'l sharoitiga eng chidamli hayvon bo'lib, Qoraqalpog'iston xududiy sharoitining keskin kontinental iqlimiga mos hisoblanadi.

Tuya suti o'zining shifobaxsh xususiyatlari bilan boshqa hayvonlar sutidan ajralib turadi. Bugungi kunning talabidan kelib chiqib shuni qattiq ta'kidlaymizki qorako'lchilik xo'jaliklarida qo'ychilik bilan tuyachilikni bir vaqtda rivojlantirish maqsadga muvofikdir. Chunki tuyalar yaylovda qorakl qo'ylari ozuqlana olmaydigan o'simliklar bilan ozuqlanishi ya'ni, tuyalar boshqa chorva hayvonlari iste'mol qila olmaydigan o'simliklarni, sho'r va taqir suvlarni iste'mol qila oladi, va ulardan haet kechirishda samarali foydalanadi, cho'l yaylovlaridagi ozuqalarning asosiy tarkibini tutuvchi o'simliklardan tuyalar ozuqlanadi [1].

Tuyalar cho'l va yarim cho'l hududlarda yashashga va ko'payishga yukori darajada moslashgan bo'lib, sutining miqdori va sifati bo'yicha boshqa hayvonlardan kolishmaydigan arzon sut maxsulotini berish imkoniyati xalqni sut bilan ta'minlashda ulardan oziq-ovqat zahirasi sifatida to'liq foydalanish uchun asos yaratadi.

Tabobat ilmi sultoni Abu Ali ibn Sino «Tib qonunlari» asarida tuya sutining shifobaxshligi hususida yozib qoldirgan. Tuya suti juda mazali va to'yimli mahsulotdir. Sharq mamlakatlarida bu ne'mat azaldan sevib iste'mol qilinadi.

Tuya suti tarkibida V1, V2 vitaminlari, temir, fosfor, oltingugurt, kal'tsiy moddalari mo'l. Ayniqsa, S va D vitaminlari tuya sutida sigir sutiga nisbatan uch barobar ko'p. Sut shakari – kazein va laktoza moddalari esa aksincha tuya sutida kam miqdorda bo'ladi.

Agar bemorning immuniteti (organizmning kasalliklarga qarshi chidamliligi) past bo'lsa har kuni 0,5 litrdan yangi sog'ilgan tuya sutini och qoringa ichib yursin. Keyin 4 soat o'tgach ovqatlansa bir oy yoki 40 kun o'tgach o'zida ijobiy o'zgarishlarni his etadi.

Tuya sutini iste'mol qilgan davrda bemor achchiq, sho'r, dudlangan va turli konserva muhsulotlari, shuningdek, spirtli ichimliklarni ichish, sigaret chekishdan tiyilishi kerak. Chunki, parhez tutish tuya sutining shifobaxsh ta'sirini oshiradi.

Tuyachilikda sut mahsuldorligi bo'yicha iqtisodiy samaradorli hisoblanib, sut – eng asosiy ozuqa maxsulotlarining biri ekanligi ma'lum. Uning tarkibida odamning normal yashashi uchun zarur bulgan 90 dan ko'proq zaruriy moddalar, jumladan 20 tadan ortiq aminokislota, yog' kislotalari, sut qandi, hamda 25 dan ziyod pigmentlar mavjuddir [Yu.Sokratyants].

Sutning o'ziga xos xususiyatlari mavjud, jumladan uning engil hazm bo'lishi va tarkibida zararli mikroorganizmlarni qiron xolatga keltiruvchi immun tanalari mavjudligi bilan ajralib turadi.

Shu bois sut va undan tayorlanadigan maxsulotlar odamlar va yosh bolalar uchun muhim dietik ozuqa mahsuloti hisoblanadi.

Tuya suti va undan tayorlanadigan mahsulot (shubat, qimron) o'zining yuqori to'yimliliigi, o'ziga xos ta'mi, tarkibida oqsil, yog' bo'lishi bilan ajralib turadi. Ona tuyalar sut mahsuldorligi bo'yicha qoramollardan ancha yuqori turadi.

Tuyalarning o'ziga xos biologik xususiyatlari mavjud bo'lib, bular qatorida 350-450 kun laktatsiya davrining davom etishi, yil davomida yaylovlarda boqilib sog'ish mumkinligi bilan boshqa chorva hayvonlaridan ajralib turadi.

Ona dromedar tuyalar (toza zotli bir o'rkachli tuya) va ularning duragay avlodlari (nar, qurt, qo'shmoq) ona baktrianlarga (ikki o'rkachli toza zotli tuyalar) nisbatan sersut bo'ladi [3].

Jadval-1

Bir o'rkachli tuyalarning sut mahsuldorligi

| Tuyalar tug'im yoshi | 1-Sutkada sog'ish davri | | | | | Jami sog'ilgan sut miqdori |
|----------------------------|-------------------------|---------------|--------------|----------|----------|-------------------------------------|
| | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | |
| | $X \pm S_x$ | | | | | |
| 3-yosh | 907±28,5 | 846±26,5 | 787±24, 7 | 646±20,3 | - | 3186±100 |
| 5-yosh | 1203±24, 6 | 1049±21, 5 | 889±18, 2 | 861±17,6 | 878±18,1 | 4880±100 |
| 7-yosh | 1230±24, 6 | 1069±21, 3 | 949±19, 0 | 868±17,3 | 891±17,8 | 5007±100 |

1-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, 3-tug'im yoshli tuyalar bir sutkada 4- marta sog'ish imkoni bo'lgan bo'lsa, 5-tug'im yoshli va 7-tugim yoshli tuyalar sutkasiga 5- marta sog'ilgan. Shu bilan bir qatorda tug'im yoshi oshgan sari ularning sut mahsuldorligi oshib borgan. Jami bir sutkada 3-tug'im yoshli tuyalardan sog'ib olingan sutni 100 % deb kabul qilinsa, 5-tug'im yoshli tuyalarda sut miqdori 155,4%-ga teng bo'lgan bo'lsa, 7-tug'im yoshli tuyalarda 159,5 %-ni tashkil qildi. [5]

Xulosa qilib aytsak, Tuyalarning tug'im yoshi oshgan sari sut mahsuldorligi oshib borgan.

Bugungi kunda tuya sutidan foydalanish va uni keng miqyosda ishlab chiqarish juda past darajada ta'kidlash lozim. Buning asosiy sabablaridan biri tuyachilikda sut fermalarini tashkillashtirish masalalarining va tuyalarni sog'ish

usullarining va laktatsiya davrida butoloqlarni o'stirish masalalarining etarlicha ishlamaganligi bo'lib hisoblanadi.

Qorakolpog'iston charvodarlari va soha olimlari oldida turgan asosiy vazifalarning biri tuyalar bosh sonini ko'paytirish bilan bir qatorda yuqori mahsuldorli tuyalar podasini, naslli liniyalar yaratish hamda tuyachilikdan olinadigan mahsulotlar sifatini oshirishning yangi ilmiy, zamonaviy va istiqbolli usullarini ishlab chiqishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdirov B.A va boshqalar, 2004-2006 yillardagi loyiha hisobotlari, Nukus, 35 bet.

2. Баймуканов А.Б. Актуальные вопросы верблюдоводства. Вестник с\х наук Казахстана, Алма-ата, 1982. ст.49-53

3. Eshmuratova S.T. «Tuya suti», J. O'zbekiston qishlok xo'jaligi, Toshkent, № 3, 2006 yil, 25-26 betlar.

4. Turganbaev R., Tleumuratov A. «Qoraqolpog'iston tuyachiligi» Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda faol tadbirkorlik va innovatsion texnologiyalarni qo'llab quvvatlash. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi miqyosidagi ilmiy –amaliy anjuman materiallari Termiz, 18-19 may 2018 yil 29-31 bet.

5. Turganbaev R., Tleumuratov A. Tuyalar sut mahsuldorligining yoshi va konstitutsiyasiga bog'liqligi Journal of technical science and innovation, 2020, No 1, Vol 1 15-18 bet.

ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН ШАРОИТИДА ИСТИҚБОЛЛИ LOHMANN BROWN-CLASSIC VA LOHMANN SANDY КРОССЛАРИГА МАНСУБ ТОВУҚЛАРНИНГ ФИЗИОЛОГИК КЎРСАТКИЧЛАРИ

Алимбаев Б.К., Айтжанов Р.Т., Ж.Ешниязова

Самарқанд давлат ветеринария медицинаси, чорвачилик ва биотехнологиялар университети Нукус филиали

Аннотация. Ушбу мақолада “Lohmann brown-classic” ва “Lohmann sandy” кроссларига мансуб товуқларнинг физиологик кўрсаткичлари ўрганилиб, таҳлил қилинган ва хулосалар берилган.

Калит сўзлар. Кросс, тана ҳарорати, юрак уриши, нафас олиши

Annotation. In this article, physiological indicators of chickens belonging to "Lohmann brown-classic" and "Lohmann sandy" crosses are studied, analyzed and conclusions are given.

Key words. Cross, body temperature, heart rate, breathing

Қириш. Паррандалар физиологияси тирик организмнинг физиологик жараёнлари ва фаолиятини, хужайралар, тўқималар, органлар ва умуман организм даражасида, уларнинг бир-бири билан ўзаро муносабатларида ва атроф-муҳит шароитлари, сақлаш технологияси, шунингдек паррандаларнинг хулқ-атвор реакцияларини ҳисобга олган ҳолда ўрганади.